

---

## **BAYRAMINGIZ QUTLUG' BO'LSIN AZIZ HUQUQ POSBONLARI!**

25 oktyabr - "Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni" munosabati bilan Qo'shtepa tumani ichki ishlar bo'limida xizmat qilayotgan soha xodimlari tuman hokimligi tomonidan taqdirlandilar. O'z xizmat vazifalariga sidqidildan yondashib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi, hamda jamoat tartibini saqlash bilan bir qatorda tuman hududida olib borilayotgan targ'ibot tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan fidoyi kasb egalarining bir guruhiga tuman hokimi I. Novikov tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi. Tadbirda sektor rahbarlari ham ishtirok etdi.



---

Shu fursatdan foydalanib bugun Ichki ishlar organlari sohasida faoliyat olib borayotgan barcha xodimlarni bugungi kasb bayramlari bilan tabriklaymiz! Ularga sog'lik - salomatlik va oilaviy baxt tilab qolamiz!

2020-10-25 19:52:23